



## BARQAROR BIRIKMALAR TARKIBIGA OID NAZARIYALAR TAHLILI

*Babanazarova Sohiba Abdusharipovna, doktorant*

*Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xorazm*

**Annotatsiya.** Maqolada barqaror birikmalarning tarkibi, ularning tasnifi va tilshunoslikdagi talqinlari bo'yicha mavjud yondashuvlar tahlil qilinadi. Frazeologiya va paremiologiya sohalarining bir-biriga munosabati, farqlovchi va umumlashtiruvchi jihatlari V.V. Vinogradov, N.M. Shanskiy, N.F. Alefirenko, Z.G. Uraksin, H. Berdiyurov, R. Rasulov kabi olimlar qarashlari asosida yoritiladi. Maqol, matal, aforizm, ibora va turg'un o'xshatishlarning o'zaro o'xshash hamda differensial tomonlari ilmiy manbalar asosida ko'rsatilib, turg'un o'xshatishlarning frazeologik birlik sifatidagi maqomi alohida asoslab beriladi. Shuningdek, barqaror birikmalarning xalq tafakkuri, madaniy qadriyatlar, diniy va axloqiy qarashlarni aks ettiruvchi muhim til birliklari ekanligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari barqaror birikmalarni o'rganish tilshunoslikda hanuz dolzarbligini yo'qotmagan murakkab masala ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** barqaror birikmalar, frazeologiya, paremiologiya, poremalar, frazeologizmlar, maqol, matal, aforizm, turg'un o'xshatishlar, semantik transpozitsiya, barqarorlik, tayyorlik, obrazlilik, komparativ konstruksiya, frazemika.

Barqaror birikmalar (keyingi o'rinlarda BB)lar tarkibiga, odatda, frazeologizmlar, maqol, matallar va aforizmlar kiritiladi. Lekin aynan qaysi til birliklari BBlar tarkibiga kirishi yoki ularning nomlanishi haqidagi fikrlar turlicha. Avvalo, tilshunoslikning BBlarni o'rganuvchi ikkita bo'limi, ya'ni frazeologiya va paremiologiya haqida to'xtalsak. Shu paytgacha tilshunoslikda frazeologiya bo'limi keng va tor ma'noda tushunilib, tarkibi va komponentlari haqida turli fikrlar bildirilgan. Masalan, rus tilshunosi V.V.Vinogradov ta'limoti asosida frazeologiyaning doirasi ancha toraytirildi va tor tushuncha tarafdorlari frazemalar sifatida faqat iboralarni tan olishdi[1]. Lekin keyinchalik ushbu andazalardan chetlashilganligini va frazeologizmlar doirasi kengaytirilganini kuzatishimiz mumkin. Frazeologiyani keng ma'noda tushunish tarafdorlaridan N.M.Shanskiy o'z ma'nosi, tarkibi va tuzilishi jihatidan doimiy bo'lgan ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan, tayyor lisoniy birlik sifatida taqdim etiladigan barcha turg'un birliklarni, jumladan, maqol, matal va aforizmlarni ham frazeologizmlar tarkibiga kiritadi[2]. Shuningdek, "Lingvistik ensiklopedik lug'at"da ham



bunday birikmalarning barchasi “frazeologizm” atamasi ostida ifodalangani holda, idiomalar, maqol va matallar; qanotli soʻzlar, aforizmlar; *Ishlar qanday? Kayfiyatlar yaxshimi?* singari shtamplar uning tarkibiga kiritilganini kuzatishimiz mumkin[3]. Koʻplab Yevropa tillarida esa XVI asrdan BBlarga nisbatan “idioma” termini qoʻllana boshlagan[4].

Rus tilshunoslari N.F.Alefirenko va N.N.Semenenko frazeologizmlarga quyidagicha taʼrif berishadi: “Har bir xalqning tilida nutqda soʻz kabi takrorlanadigan, muloqot yoki matn yozish jarayonida yaratilmaydigan barqaror obrazli iboralar mavjud. Bunday turgʻun birikmalar frazeologizmlar, frazeologik birliklar yoki frazemalar deyiladi, ular birgalikda tilning frazeologik tarkibini yoki frazemikani tashkil qiladi. Ularni oʻrganuvchi fanga frazeologiya deyiladi”[5].

Frazeologiya sohasida katta ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim Z.G.Uraksin frazeologizmlarning asosiy belgisi sifatida leksik bogʻliqlik va maʼno yaxlitligi, obrazlilikka asoslangan oʻziga xos maʼno va bu maʼnoning frazeologizmning tilga mustaqil birlik sifatida kirib kelish onidayoq shakllangan boʻlishi kerakligini keltiradi. U quyidagi frazeologik birlik (keyingi oʻrinlarda FB) belgilarini ajratadi:

1. Komponentlar oʻrtasidagi barqaror bogʻliqlik;
2. Butun maʼnoga asoslangan qayta tiklanuvchanlik;
3. Voqelikning obrazli aks ettirilishi (istisnosiz hammasida metaforiklik);
4. Obrazlilikka tayanadigan maxsus maʼno turi;
5. Tushunchani ifodalash, hukmni emas[6].

H.Berdiyorov va R.Rasulovlar oʻz tadqiqotlarida barcha BBga nisbatan paremlar atamasini qoʻllaydilar va paremiologiya va frazeologiyani farqlab, quyidagicha fikr bildiradilar: “Paremlarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti va maʼnolarini oʻrganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan oʻzaro chambarchas bogʻliq. Paremiologiya tilda turli xarakterdagi barcha iboralarni oʻrganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida – faqat koʻchma maʼnoli turgʻun birikmalarni oʻrganadi. Bu ularning oʻzaro farqlovchi tomonlaridir. Oʻrganish obyektining birligi, yaʼni bir necha soʻzdan tuzilgan BBlarni tekshirish ularning oʻxshash, umumiy tomonlaridir. Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishida paremiologiyaning roli katta”[7].

Biz ham paremiologiya va frazeologiyaning bir-biriga uzviy bogʻliq boʻlgani holda alohida boʻlimlar sifatida qabul qilishni maʼqul koʻrdik va barcha BBlarga nisbatan paremlar, iboralarga nisbatan frazeologizmlar atamalarini qoʻlladik. Chunki koʻpchilik tilshunos olimlarning fikricha, maqollar folklordan boʻlmagan aforizmlar bilan bir qatorda frazeologiya sohasiga kirmaydi. V.P. Jukov maqol va frazeologik birlik oʻrtasidagi asosiy farq maqolning gap shakli ekanligini taʼkidlaydi. Bundan tashqari, maqollar frazeologik birliklardan semantik



va intonatsion to'liqligi, sintaktik bo'linishi bilan farqlanadi. Maqolning asosini frazeologik birliklar kabi tushunchalar emas, balki hukmlar tashkil etishi ham juda muhimdir. Bu dalillarning barchasi paremiologiyani mustaqil fan sifatida ajratish uchun asosdir[8].

Ayrim manbalarda paremlar paradigmasini hosil qiluvchi "barqarorlik", "tayyorlik", "semantik transpozitsiya" belgilarini o'zida mujassam qilgani bois topishmoqlar ham paremlar qatoriga kiritiladi[9]. Tilshunos A.Mamatov frazeologizmining ta'rifiga mos tushgan, uning talablarini bajarolgan, ya'ni tuzilishi jihatidan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan, obrazli, umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiritilishi shart[10] ligini ta'kidlaydi. Agar yuqoridagi belgilar paremlarning muhim belgilari hisoblansa, unda paremlar qatoriga turg'un o'xshatishlarni ham qo'shishimiz mumkin bo'ladi, chunki turg'un o'xshatishlar ham ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topib, tarkibining yaxlitligi, o'zgarmasligi, nutqqa tayyor olib kirilishi jihatidan BBlarga xos xususiyatlarni o'zida namoyon etadi hamda uni BBlar bilan bir qatorda o'rganishimizga asos bo'la oladi. Demak, turg'un o'xshatishlar ham nutqimizda tayyor qo'llanadigan, tarkibi barqaror bo'lgan, yaxlit birlik sifatida qo'llaniladigan paremlardir va tuzilishi jihatidan FB bo'la oladi. Jahon tilshunosligida ham turg'un o'xshatishlar bir qator ilmiy tadqiqotlarda FB sifatida o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. Tilshunos T.V.Panomareva ham uni BBlar qatoriga kiritadi[11]. Turg'un o'xshatishlarni antroposentrik paradigma doirasida o'rgangan A.Raximova ularning tarkibi barqaror ekanligidan kelib chiqib mustaqil FB sifatida shakllanganligiga e'tibor qaratadi va bu jarayon antroposentrik tafakkurning takomillashuvini aniq aks ettirishini ta'kidlaydi[12]. Demak, turg'un o'xshatishlar ham BBlarning barchasi qatori "tayyorlik" belgisi orqali ular bilan bir butunlikni hosil qiladi. Shu bilan birga ular ma'lum bir belgilar bilan bir-biridan farqlanadi. Tilshunos Sh.A.Ganiyeva BBlarni o'zaro birlashtiruvchi va farqlovchi oltita relevant belgi, ya'ni barqarorlik, tayyorlik, semantik transpozitsiya, informativ tugallik, muallifga egalik va jumboqlikni sanab o'tadi. Bundan tashqari, Z.K. Tarlanov BBlarga xos "aksiomatik belgi"ni e'tirof etadi[13]. Xususan, maqol, matal va aforizmlar nutq aktida "aksiomatik" vazifani bajaradi, ya'ni ular isbotga muhtoj emas. Fikrimizcha, didaktiklik va variantlashish belgisi ham BBlarning farqlovchi belgisi bo'lishi mumkin. Chunki maqollar variantlashish xususiyatiga ega, lekin aforizmlarda bunday xususiyat yo'q. Turg'un o'xshatishlarning differensial belgisi esa komparativ konstruksiyaning majburiyigidir. Bu boshqa BBlardan farqli o'laroq o'xshatishlarning tarkibida kamida ikki obrazning taqqoslash asosida birlashishini ta'minlaydi[14].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, barqaror birikmalarning tarkibi, tasnifi va lingvistik mohiyatini aniqlash masalasi tilshunoslikda ko'p qirrali, uzoq tarixga ega va hanuz yakuniy



yechimini topmagan nazariy muammo hisoblanadi. Frazeologiya va paremiologiya o'rtasidagi munosabat, ular o'rganadigan birliklarning chegaralanishi, maqol, matal, aforizm, ibora, idiomaning farqlanishi va integratsiyasi haqida olimlar tomonidan bildirilgan qarashlar ko'plab umumiy jihatlar bilan bir qatorda, muhim differensial belgilarga ham ega ekani ayon bo'ldi. Turli nazariy yondashuvlar BBlarni tasniflashda barqarorlik, tayyorlik, semantik transpozitsiya, obrazlilik, aksiomatiklik kabi belgilarni asosiy mezon sifatida ilgari suradi.

Tahlil natijalari turg'un o'xshatishlarning ham struktur-semantik xususiyatlari, tayyorlik darajasi va obrazlilik mezonlari tufayli paremlar tarkibida mustaqil birlik sifatida qaralishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqollarning hukm ifodalashi, matallarning axborot berish xususiyati, aforizmlarning muallifga egalik belgisi kabi jihatlar BBlar ichida o'ziga xos tabaqalanish mavjudligini tasdiqlaydi.

Maqolada keltirilgan ilmiy qarashlar BBlarning nafaqat lisoniy hodisa, balki xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq kognitiv birlik ekanini yaqqol namoyon etadi. Shu bois barqaror birikmalarni zamonaviy lingvistika, xususan, kognitiv, lingvokulturologik, pragmatik, diskursiv yondashuvlar asosida o'rganish masalasi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, BBlar bo'yicha mavjud nazariyalar tahlili mazkur sohaga oid qarashlarni tizimlashtirish, terminologik chalkashliklarni bartaraf etish va kelgusida yanada aniq metodologik asoslar yaratish zarurligini ko'rsatadi. BBlarning konseptual tabiati, ularning til egasi ongida qay tarzda shakllanishi va nutq jarayonida qanday kognitiv vazifalarni bajarishi bo'yicha izlanishlar esa kelgusidagi tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины (1946) [Текст] / В.В.Виноградов // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – 312 с.
2. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. 3-е изд., испр. и доп. М.: Высш. шк., 1985.
3. Ganiyeva Sh. O'zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish): Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss... – Farg'ona, 2017. 18-bet.
4. Шестак Е.И. Профессионально маркированные фразеологические единицы в когнитивно-коммуникативном аспекте: Дисс. ...канд. филол. наук. – Челябинск, 2008. – Ст. 36.
5. Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фразеология и паремиология. Учебное пособие для бакалаврского уровня филологического образования. – М.: Флинта: Наука, 2009. Ст 7.



6. Самситова Р.И. История изучения фразеологизмов в языкознания. Уфа. Россия статья в журнале - научная статья Язык: русский. Номер: 4 (52) Год: 2019.
7. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 10.
8. Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фразеология и паремиология. Учебное пособие для бакалаврского уровня филологического образования. – М.: Флинта: Наука, 2009. Ст 241-242.
9. Ganiyeva Sh. O'zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish): Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss... – Farg'ona, 2017. 20-bet.
10. Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991. – B.212.
11. Пономарева Т.В. Фразеологические единицы в когнитивном аспекте: Дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 120 ст.
12. Рахимова А.Р. Вербализация характера и эмоционального состояния человека в устойчивых сравнениях русского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Казан, 2017. – 37 с.
13. Тарланов З.К. Русские пословицы: синтаксис и поэтика. Петрозаводск: ПГУ, 1999. Ст 65-66.
14. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке// Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 140-161.